

MANGLAYIDA YULDUZI BOR YIGIT

(Bulg'or xalq ertagi)

Necha zamonlar ilgari bir ochiqko'ngil va mehnatsevar odam yashagan ekan. Uning hech nimadan kamchiligi yo'q ekan — uy desa dang'illama hovlisi, pul desa bitmas-tuganmas davlati, bisot desa otdan tortib jonivorning hamma turigacha hovlisini to'ldirib turarkan. Faqat bolalari yo'q ekan, shu tufaylidan uning ich-etini g'am kemirarkan. Xudoning barmish kuni uzoq-uzoq mamlakatlardan kelgan musofirlar unikiga qo'nar, mehmondo'st uy sohibi ochiq chehra bilan ularni qarshi olar, ichkariga taklif qilar, beka esa o'choqboshida kuymanib, mehmonlarga turli-turli ovqatlar pishirar ekan.

Nima ham bo'libdi-yu, kunlarning birida kechgacha ham mehmondo'st bu uyga bironta ham odam kelmabdi. Uy sohibi, bironta yo'lovchi o'tmayotganmikin, o'tayotgan bo'lsa ichkariga chaqiray, deb ko'cha qaragani chiqibdi. Ko'chada turaveribdi, turaveribdi, tun ham cho'kibdi, biroq bitta ham yo'lovchi o'tmabdi. Zerikib ketibdi. Oxiri uyiga qaytib kirmoqchi bo'lib turgan ekanki, birdan qorong'i ko'chadan kelayotgan bir cholga ko'zi tushibdi. Cholning soqoli xuddi beligacha tushib turarkan.

- Assalomalaykum, o'g'lim, — debdi chol uy sohibiga yaqinlashib:

- Vaalaykum assalom, bobo! Bemahalga qolib ketibsizmi? Biznikiga kirib, shu yerda tunab qo'ya qolmaysizmi?

- Xudo xayringni bersin.

Chol suyunib ketibdi va olijanob odamnikida qolishga rozi bo'libdi. Ular uyga kirishibdi. Beka mehmon kelganidan quvonib, oyog'i olti, qo'li yetti bo'lib xizmatga sho'ng'ib ketibdi va yog'liq taom pishiribdi. Ovqatlanib bo'lishgandan keyin chol uy egasidan qanday yashayotganlarini, hech narsadan zoriqib qolganlari yo'qmi, surishtira boshlabdi.

- Tirikchilikdan noliydigan joyimiz yo'q, — javob beribdi uy sohibi, — hamma narsa yetarli bizda. Faqat bittagina farzandimiz bo'lsaydi, beshikka solib, allalar aytsak — armonimiz shu.

- Qayg'urmang, — debdi chol, — xudo farzand ham berib qoladi. Endi yotaylik, vaqt yarim tun bo'lib qoldi.

Ertalab chol sahardan uyg'onib, ketishga chog'lanibdi. Uy sohibi uni qishloq chekkasigacha kuzatib chiqibdi. Xayrlashayotib chol cho'ntagiga qo'l solib, bitta olma chiqaribdi-da, uni mehmon- do'st uy sohibiga tutqazibdi.

- Mana bu olmani ol! Uyga borib, teng ikkiga bo'l. Bir pallasini xotining ikkalang baham ko'ringlar. To'qqiz oydan keyin u senga oydek o'g'il tug'ib beradi. Uning nishoni bo'ladi — manglayida yulduz bilan tug'iladi. Voyaga yetganda dunyodagi eng ko'rkam bahodir yigit bo'lib yetishadi. — Keyin chol to'rvasiga qo'l suqib, undan bir sharashir olibdi. — Mana bu shamshirni ham ol. Uni ehtiyot qilib saqla. O'g'ling yigirma yoshga to'lganda shamshirni unga ber va aytginki, zarur bo'lganda shamshir qindan o'zi chiqadi. Bordi-yu, shamshirni o'g'ling emas, boshqa birov qinidan sug'urgudek bo'lsa, manglayida yulduzi bor yigitcha o'sha zahoti nobud bo'ladi... Olmaning ikkinchi pallasini o'n ikki bo'lakka bo'l. Bisotingda o'n ikki tug'magan biyang bor. Har biriga bittadan bo'lakni yedir. Ulardan biri manglayida shoxi bor qulun tug'ib beradi. Uni ko'z qorachig'idek asra — o'g'ling shuni minib yuradi. Xo'p, endi yaxshi qol, xayr!

Uy sohibi uyiga qaytib kelibdi-da, chol aytgan narsalarni beka-u ko'st ado etibdi. Vaqti-soati kelib xotini manglayida yulduzi bor o'g'ilcha, biyasi manglayida shoxi bor qulun tug'ib beribdi.

Bola o'sib-ulg'ayib, yoshi yigirmaga to'libdi. U ov ovlagani toqqa borar va har gal bironta kiyik yoki bug'u ko'tarib kelar ekan. Bir gal hatto yirtqich ayiq tutib kelibdi.

Kunlarning birida qishloqda mish-mish tarqalibdi. Emishki, shaharda bir dahshatli o'spirin paydo bo'lganmish, u shunaqangi botir, pahlavon emishki, ikkita ot taqasini bitta qilib

qarsillatib sindirarmish. Shunda toleli yigitcha otasiga shahar tushib, o'sha pahlavonni ko'rmoqchi ekanini aytibdi.

- Bora qol, o'g'lim, faqat avval otxonadan o'zingga munosib ot tanla.

Yigitcha otxonaga borib, bir otning dumidan tutibdi-da, boshi uzra aylantirib, darvoza osha uloqtiribdi, so'ng ikkinchi otning dumidan tutibdi, boshi uzra aylantirib buni ham uloqtiribdi, keyin uchinchisini, to'rtinchisini, beshinchisini ham shunday qilibdi.

- Nahotki bir durustroq ot bo'lmasa? — debdi yigitcha otboqarlarga.

- Bor, nega bo'lmas ekan! Faqat uning manglayida shoxi bor-da. Shunaqangi asovki, oldidan borsangiz tishlaydi, orqadan borsangiz tepadi. Bunaqa otda yurib bo'larmidi, safarga yaramaydi u.

Yigitcha shoxdor otga yaqin boribdi, dumidan tutib ko'tarmoqchi bo'lgan ekan, ot xuddi mixlab qo'yilgandek qimir etmabdi.

- Mana bu ot menbop ekan, — debdi yigitcha.

Otga minibdi-da, yigitcha xo'shlashgani ota-onasining oldiga kelibdi.

O'g'lining shoxdor otni tanlaganini ko'rib ota sevinchi ichiga sig'may ketibdi va shamshirni olib chiqqani ichkariga kiribdi. Shamshirni hovliga olib chiqib, o'g'lga tutqazibdi va oppoq soqolli cholning o'gitlarini so'zlab beribdi.

Yigitcha ota-onasining qo'lidan o'pib yo'lga tushibdi. U yo'l yuribdi, yo'l yursa ham mo'l yuribdi. Ikkita ot taqasini bitta qilib qarsillatib sindiradigan yigitning shahriga yetib boribdi. Qidirib-qidirib pahlavonni bir taqachilik ustaxonasidan topibdi va debdi:

- Kel, kuch sinashamiz.

- Bo'pti, — rozi bo'libdi shaharlik pahlavon.

U yap-yangi ikkita taqani bir qilib bamisoli oddiy cho'pday qarsillatib sindiribdi.

Shunda bizning botirimiz uchta taqani olib bir-birining ustiga qo'yibdi-da, kaftlari orasiga olib bir qisgan ekan, taqalar mayda-mayda bo'lib ushalib tushibdi.

Dongdor pahlavon o'zini musofir yigitning oyog'iga tashlabdi.

- Tan berdim, sen mendan kuchli ekansan, — debdi mardonavor.

Shundan so'ng manglayida yulduzi bor yigitcha shoxdor otiga minibdi-da, kuch sinashgani boshqa pahlavonlarni izlab ketibdi. U uzoq yuribdi, qayerdagi dong qozongan yosh pahlavon bo'lsa, barisi bilan kuch sinashib, yelkasini yerga tekkizib ketaveribdi. Bir kuni unga, tog'da bir bahodir yigit bor, unga hech qanday pahlavon bas kelolmaydi, deb qolishibdi. Yigitchamiz darhol otning boshini o'sha yoqqa buribdi. Mana, o'sha aytgan toqqa yetib kelibdi ham, qarasa, to'siq ortida bir oq uy turganmish. Shoxdor ot to'siqdan yengil sakrab o'tibdi. Shu top uydan bir kishi yugurib chiqibdi va to'riq otiga sakrab minib, kelgindiga peshvoz chiqibdi.

- Mening uyimda nimangni yo'qotding? — deb qichqiribdi u.

Manglayida yulduzi bor yigitcha shamshirini qinidan sug'urib havoda bir sermabdi — havoda hushtak ovozi yangrabdi. Raqibi esa birdan ortga chekinibdi — shamshirni, otning manglayidagi shoxni ko'rib, undan ko'zini uzolmay qolibdi. To'riq otidan sapchib tushibdi-da, o'zini yigitcha otning oyog'iga tashlabdi.

- Tan berdim, mehmon, dunyoda tengi yo'q senday mard pahlavon oldida qulluq qilaman! Bugundan boshlab umrimning oxirigacha senga sadoqat bilan xizmat qilishga so'z beraman!

Manglayida yulduzi bor yigitcha shamshirni qayta qinga solibdi, shoshib otdan tushibdi va oq uyga kiribdi. U yerda cho'rilar ivirsib shohona ovqat hozirlash bilan mashg'ul ekan. Uy sohibi bilan mehmon stolga o'tirishibdi. Yebdilar, ichibdilar, o'yin-kulgi qilibdilar. So'ngra navbat gurungga yetibdi. Uy sohibi qo'lidan qanday mo'jizalar kelishini so'zlay ketibdi.

- Men, — debdi u, — ayiqqa, echkiga yoki eshakka aylana olaman, oyog'imni osmonga qilib, qo'llarimda yura olaman, oyog'im bilan qo'liday ishlay olaman.

Bular hech nima emas! Xo'sh, tag'in nimalar qila olasan?

- Agar qulog'imni yerga tutsam, dunyodagi jamiki odamlar gapirayotgan gaplarni eshita olaman.

- Mana bu boshqa gap! — debdi manglayida yulduzi bor yigitcha. — Endi bizlar xayrlashamiz, og'ayni!

- Xayr, do'stim! Yo'ling sutday oq bo'lsin! Aytmoqchi, biz yana qachon ko'rishamiz? Sening omon-esonligingni, biron kor-hol yuz bermaganini qanday bilaman?

- Unda gapimni eshit, — deb javob qilibdi mehmon. — Mana bu gulni ol. U mening onamning bog'ida o'sgan: onam uni men olamga kelganimda ekan. Urug'dan novda unib chiqibdi va undan ikkita g'uncha paydo bo'libdi. G'unchalar ochilib, shu bugunga qadar so'lish nimaligini bilmaydi. Ular men dunyodan ko'z yumgandagina so'ladi. Bittasi senda qolsin, ikkinchisini o'zim bilan ola ketaman. Har kuni shu gulga qaraysan. U ochilib turibdimi, demak men hayotman, bordi-yu, so'lsa, bilginki, men hayotdan ketgan bo'laman.

Manglayida yulduzi bor yigitcha shu so'zlarni aytibdi-da, shoxdor otiga irg'ib minibdi, otini bir niqtab, hovlidan sor burgutday uchib ketibdi. U uzoq ot surib ketaveribdi, ko'm-ko'k yaylovlar, qop-qora o'rmonlar oshibdi, to'qqiz daryo kechib o'tibdi. Yo'lida uchragan katta-yu kichik manzillarda to'g'ri kelgan odamdan kuch sinashadigan botir bormi, yo'qmi deb surishtirib ketaveribdi. Biroq u bilan kuch sinashishga munosib botirni hech kim aytib berolmabdi.

Yurib-yurib manglayida yulduzi bor yigitcha bir chuqur ko'lga duch kelibdi. Ko'lning o'rtasida bir chayla bor emish. Yigitcha otini sug'ormoqchi bo'lib yuganni silkitgan ekan, birdan chayladan qorni kajavadek bir odam yugurib chiqibdi-da, ovozing boricha baqirib debdi:

Ho'y bola, suvimdan icha ko'rma! Tuzlangan baliq yeb o'zim tashnalikdan o'lay deyapman! Daryolar ko'lni to'ldirsa ichib qongani bir haftadan beri poylab yotibman.

Shunday deb qorindor odam engashibdi-da, bir simirishda ko'lni tubigacha quritibdi.

Manglayida yulduzi bor yigitcha hayron qolib shoxdor otidan sakrab tushibdi va suvxo'r qorindor bilan suhbatga kirishib ketibdi. Ular eskidan tanishdek do'stona tarzda u yoq-bu yoqdan rosa gaplashishibdi. Xayrlasha turib manglayida yulduzi bor yigitcha qorindorga o'zining ikkinchi gulini taqdim etibdi va uning sirini hikoya qilib beribdi. Keyin qo'l siqishib xo'shlabdi-da, yo'lida davom etibdi.

Ketaveribdi, ketaveribdi, bir vaqt shoxdor ot chuqur vodiya tushib kelibdi. Vodiya oltin tomli baland minora qad ko'tarib turarkan.

«Bu yerda, hoynahoy, biron ulkan odam tursa kerak», — o'ylabdi manglayida yulduzi bor yigitcha va yopiq darvozani taqillatibdi. Bir bor, ikki bor, uch bor taqillatibdi, keyin devor osha ichkariga mo'ralabdi. Qarasa, tosh zinadan yosh, sohibjamol, shoyi va zar liboslarga burkangan, qo'llarida qimmatbaho toshlar yarqiragan ayol tushib kelayotgan emish. Ayol darvozaga kelib, asta ochibdi, ko'zani ko'tarib qarshisida navqiron o'spirin turganini ko'ribdi-yu, ko'zlari jiqqa yoshga to'libdi.

- Nega yig'layapsan, hoy go'zal? — so'rabdi mehmon.

- Men yig'lamay kim yig'lasin, noma'lum bahodir? Peshonamga qaroqchining xotini bo'lish yozilgan ekan. Axir men shoh qizi bo'lsam. Bir yil bo'ldi, meni senga o'xshagan suxsurday yosh yigitchaga unashirishgan edi, lekin ayni to'y kuni otamning saroyiga qaroqchilar bostirib kirib, meni olib qochishdi. Keltirib shu yerga tashlashdi. Shundan beri xudoning bermish kuni ko'z yoshim daryo bo'lib oqadi. Hayotim zim-ziyo tundan iborat. Lekin men o'zimdanda ko'ra ko'proq senga achinaman, — o'n gulingdan bir guling ochilmay turib bekorga o'lib ketasan. Qaroqchi sendaqalarning mingtasini ko'rdim demaydi.

- Qo'rqma, sohibjamol, — debdi manglayida yulduzi bor yigitcha. — Uni o'zim bir yoqli qilib, narigi dunyoga jo'natib yuboraman.

Qaroqchi bu paytda ovga ketgan ekan. Uzoqdan asirasi allaqanday suvoriy bilan gaplashib turganini ko‘rib g‘azabdan vujudini olov olganday bo‘libdi, ko‘zlaridan o‘t sachragancha otini minora sari uchiribdi. Biroq u minoraga yaqinlashishga ham ulgurmabdi, manglayida yulduzi bor yigitcha shamshirini qinidan sug‘urib bir sermagan ekan, qaroqchining oti qoq ikkiga bo‘linib ketibdi. Qaroqchi gursillab yerga ag‘darilibdi. Yigitcha ikkinchi marta hamla qilib shamshirini sermagan ekan, qaroqchi til tortmay jon beribdi. Sohibjamol ayol bo‘lsa dahlizda pichoq ushlab turgan ekan — agar qaroqchi yigitchani o‘ldirsa, o‘zining joniga qasd qilishga ahd qilib qo‘ygan ekan. Biroq qaroqchining yerda jonsiz cho‘zilib yotganini ko‘ribdi-yu, yugurib kelib botirga darvozani ochibdi va ko‘zlaridan shashqator yosh oqizgancha uni mahkam quchoqlabdi. Manglayida yulduzi bor yigitcha hovliga kiribdi, shoxdor otini otxonaga bog‘labdi, o‘zi minoraga chiqib, o‘sha yerda yashab qolibdi. Sohibjamol shoh qiziga ko‘ngil qo‘yib, unga uylanib olibdi.

Kunlar, haftalar, oylar o‘tib sohibjamolning otasi bo‘lmish shoh qaroqchining o‘lgani haqida xabar topibdi. Shunda u qiziga chopar yuborib, uyiga qaytishini, knyazlardan biriga turmushga berish niyati borligini aytibdi. Biroq qizi uyga qaytishga rozi bo‘lmabdi va choparga shunday debdi:

- Borib otamga ayting, men allaqachon erga tekkanman, menga hech qanaqa knyaz-pnyazning keragi yo‘q.

Shoh qahri qattiq odam ekan. Manglayida yulduzi bor yigitni o‘ldirishga ishqivoz odam qidirishga tushibdi, biroq unday botir topilmabdi. Bir vaqt saroyga tulkiday ayyor bir jodugar kelib shunday debdi:

Marhamatli shohim, bu yigitchani o‘ldirib, qizingni olib kelishni men bo‘ynimga olaman. Xo‘sh, evaziga mo‘mayroq to‘laysanmi?

- Bir to‘rva tilla tanga beraman, — debdi shoh.

Jodugar tilanchi-qashshoqlar kiyimini kiyibdi-da, manglayida yulduzi bor yigitcha qaylig‘i bilan yashayotgan minoraga yo‘l olibdi. Yigitcha bu paytda ovda yurgan ekan. Jodugar darvozani taqillatibdi, shoh qizi chiqibdi, jodugar unga qarab debdi:

- Qizginam, rahming kelsin menga! Uyimda bir burda qora nonim ham qolmadi. Xudo xayringni bersin, sadaqa qil!

Sohibjamol juda ko‘ngilchan ekan. Ichkaridan bir savat non, qovurilgan go’sht, meva-cheva ko‘tarib chiqibdi va jodugarga tutqazib debdi:

- Kerak bo‘lganda, tortinmang, kelavering, buvijon. Men doim uyda yolg‘iz o‘tiranman. Albatta keling, gaplashamiz, u-bu narsam bo‘lsa, sovg‘a qilaman.

Ertasiga jodugar manglayida yulduzi bor yigitcha ovga ketadigan paytni poylab, yana surgalib kelibdi. Bir kun kelibdi, ikki kun kelibdi, oxiri shoh qizi bilan do‘stlashib olibdi. Qari tulki, ering bilan qanday turibsan, deb surishtira boshlabdi.

- Turmushimiz yaxshi, — deb javob qilibdi sohibjamol. — Erim mendan hech narsani yashirmaydi.

- Ammo erga juda ham ishonaverma, — debdi jodugar. — U sendan hamma narsani ham yashirmaydi deb bo‘lmaydi. Ishonmasang, hayotingning asil siri nimada, deb bir so‘rab ko‘rgin-a, o‘la qolsa ham aytmaydi.

- Aytadi!

- Xo‘p, so‘rab ko‘r! Mana, meni aytdi dersan, sendan albatta yashiradi.

Jodugar ketibdi. Kechqurun sohibjamol dasturxon tuzabdi-da, o‘zi bir chekkada ma’yus o‘tirib olibdi.

Nega xomushsan? — so‘rabdi undan yigitcha.

- Ayt-chi, sen mendan hech narsani yashirayotganing yo‘qmi?

- Yashirmasligimni o‘zing yaxshi bilasan-ku.

- Bo‘lmasa nega shu paytgacha hayotingning asil siri nimada ekani to‘g‘risida lom-mini demaysan?

- Aytsam, xayrli bo‘lmaydi-da,

- O‘tinaman, ayt! — yalinibdi xotini ko‘zlaridan mildir-mildir yosh oqizib.

Yigitcha to‘liqib ketib, xotinini bag‘riga bosibdi.

- Yig‘lama, — debdi u, — senga aytganim bo‘lsin. Hayotimning butun siri belimdagi mana bu shamshirda. Shamshirni o‘zim qinidan chiqarsam, menga hech balo qilmaydi. Bordi-yu, boshqa biron begona odam chiqarsa, o‘sha zahoti dunyodan ko‘z yumaman. Hayotimning siri mana shu. Lekin biron kishiga bu to‘g‘rida og‘iz ocha ko‘rma, yo‘qsa halok bo‘laman.

Ertasiga sohibjamol sirni ichida saqlab turolmabdi — jodugarga hammasini gullab qo‘yibdi. Kechqurun jodugar uyga ketishga chog‘lanibdi, biroq hovliga chiqishi bilan mushukka aylanibdi-da, yopiq darvoza tagidan o‘tib, minora ichiga kirib olibdi va yigitcha xobgohidagi karavot tagiga berkinibdi. Uxlashdan oldin yigitcha shamshirni belidan yechib qo‘yibdi va yotib, uyquga ketibdi. Shunda jodugar karavot tagidan chiqib o‘z holiga qaytibdi, qinni olib shamshirni sug‘uribdi va derazadan uloqtirib yuboribdi. Shamshir ko‘lga borib tushibdi. Shu ondayoq manglayda yulduzi bor yigitcha nafas olishdan to‘xtabdi.

Ertalab sohibjamol uyg‘onib yig‘labdi, sochlarini yulibdi, jodugar esa shohga xabar qilgani ketibdi. Kuyovi o‘lganidan voqif bo‘lgan zolim shoh qo‘shinini oyoqqa turg‘azibdi va qizini zo‘rluk bilan olib kelish uchun minoraga yo‘llabdi. Biroq qo‘shin darvozaga yaqinlashgani hamon ichkaridan shoxdor ot sapchib chiqibdi-da, o‘rtada shiddatli jang boshlanibdi. Shoxdor ot butun qo‘shinga bir o‘zi bas kelib, minoraga hech kimni yaqin yo‘latmabdi.

O‘sha kuni yigitchaning do‘stlari qo‘llaridagi gullarning so‘la boshlaganini payqashibdi.

- Do‘stimiz hayotdan ko‘z yumdi! — deb qichqirib yuborishibdi ular, qo‘llarini bir-biriga urib.

Do‘stlar nima bo‘lganini bilish uchun yo‘lga tushishibdi. Dunyodagi hamma odamlarning gapini eshita oladigani qulog‘ini yerga tutsa, jodugar kampir shohga shunday deyotganmish:

- Shamshirni qindan sug‘urishim hamonoq yigitning nafasi o‘chdi.

- Shamshir qayerda?

- Men uni minora oldidagi ko‘lga otib yubordim.

- Shunaqami! — debdi birinchi do‘sti. — Yigitlarning gulini kim o‘ldirgani, mana, ma‘lum bo‘ldi! Qari jodugar yetibdi uning boshiga! Ketdik tezroq, do‘stimizni tiriltirib olishimiz kerak.

Do‘stlar ikkita ulkan tog‘ lochiniga minib, minoraga uchib kelishibdi va ko‘l bo‘yiga kelib qo‘nishibdi. Qorindor suvxo‘r engashibdi-da, bir ho‘plab ko‘ldagi hamma suvni ichib yuboribdi. Ko‘l tubida yalang‘och shamshir yaltirab turganmish. Birinchi do‘sti uni qo‘liga olib, tosh zinadan ko‘tarilibdi va jonsiz yigitcha yotgan xobgohga kirib boribdi. Qinni yerdan olib unga shamshirni joylagani hamon manglayida yulduzi bor yigitcha ko‘zlarini ishqalab o‘rnidan turibdi.

Bu paytda shoxdor ot shoh qo‘shini bilan mardonavor olishmoqda, hech kimni minoraga qo‘ymay turgan ekan. Manglayida yulduzi bor yigitcha shamshirni qo‘liga olib hovliga o‘qday otilib chiqibdi. Shamshirini yalang‘ochlab dushman qo‘shini ustida bir-ikki sermagan ekan, shoh askarlari chor atrofga tum-taraqay bo‘lib ketibdi. Yigitcha askarlar ortidan quvib o‘tirmabdi, faqat shoh bilan jodugarni asir olibdi.

Zolim shohni yer tagidagi zindonga hibs qilishibdi, jodugar esa qilmishiga yarasha jazosini olibdi — uni ko‘lga uloqtirishibdi.

“Oltin shahzoda” kitobidan